




YANGI O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCES.UZ

DAVRIYLIGI:
2018-2023



D.I. MENDELEEVNING
KIMYOVIY ELEMENTLAR
DAVRIY JADVALI



Относительная
атомная масса
(атомный вес)

	Actinoids	Periodic Table of Elements																		1		2		3		4		5		6		7		8		9		10		11		12		13		14		15		16		17		18		19		20		21		22		23		24		25		26		27		28		29		30		31		32		33		34		35		36		37		38		39		40		41		42		43		44		45		46		47		48		49		50		51		52		53		54		55		56		57		58		59		60		61		62		63		64		65		66		67		68		69		70		71		72		73		74		75		76		77		78		79		80		81		82		83		84		85		86		87		88		89		90		91		92		93		94		95		96		97		98		99		100		101		102		103																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																																									
Cr	Хром	Mn	Марганец	Fe	Железо	Co	Собальт	Ni	Николь	Cu	Сириум	Zn	Цинк	Ag	Аргентум	Sn	Станнум	Sb	Стибий	Br	Бром	Ge	Германий	As	Мышьяк	Se	Селен	Te	Теллур	Pt	Платина	Os	Оsmium	Ir	Иridий	Pd	Палладий	Ru	Рутений	Tc	Технеций	Mo	Молибден	W	Вольфрам	Re	Рений	N	Нитратий	Y	Яттрий	Bh	Бониум	Hs	Хассий	Mt	Мейтнерий	Ds	Дармштадтий	Rg	Рентгений	Cn	Копериций	Pt	Платина	Au	Золото	Ir	Иридий	Os	Оsmium	Re	Рений	W	Вольфрам	Y	Яттрий	Yb	Иттербий	Lu	Лютесий	At	Астатий	Ts	Технеций	Bi	Бисмут	Pb	Свинец	Sn	Станнум	Sb	Стибий	Br	Бром	Ge	Германий	As	Мышьяк	Se	Селен	Te	Теллур	Pt	Платина	Os	Оsmium	Ir	Иридий	Pd	Палладий	Ru	Рутений	Tc	Технеций	Mo	Молибден	W	Вольфрам	Re	Рений	N	Нитратий	Y	Яттрий	Bh	Бониум	Hs	Хассий	Mt	Мейтнерий	Ds	Дармштадтий	Rg	Рентгений	Cn	Копериций	Pt	Платина	Au	Золото	Ir	Иридий	Os	Оsmium	Re	Рений	W	Вольфрам	Y	Яттрий	Yb	Иттербий	Lu	Лютесий	At	Астатий	Ts	Технеций	Bi	Бисмут	Pb	Свинец	Sn	Станнум	Sb	Стибий	Br	Бром	Ge	Германий	As	Мышьяк	Se	Селен	Te	Теллур	Pt	Платина	Os	Оsmium	Ir	Иридий	Pd	Палладий	Ru	Рутений	Tc	Технеций	Mo	Молибден	W	Вольфрам	Re	Рений	N	Нитратий	Y	Яттрий	Bh	Бониум	Hs	Хассий	Mt	Мейтнерий	Ds	Дармштадтий	Rg	Рентгений	Cn	Копериций	Pt	Платина	Au	Золото	Ir	Иридий	Os	Оsmium	Re	Рений	W	Вольфрам	Y	Яттрий	Yb	Иттербий	Lu	Лютесий	At	Астатий	Ts	Технеций	Bi	Бисмут	Pb	Свинец	Sn	Станнум	Sb	Стибий	Br	Бром	Ge	Германий	As	Мышьяк	Se	Селен	Te	Теллур	Pt	Платина	Os	Оsmium	Ir	Иридий	Pd	Палладий	Ru	Рутений	Tc	Технеций	Mo	Молибден	W	Вольфрам	Re	Рений	N	Нитратий	Y	Яттрий	Bh	Бониум	Hs	Хассий	Mt	Мейтнерий	Ds	Дармштадтий	Rg	Рентгений	Cn	Копериций	Pt	Платина	Au	Золото	Ir	Иридий	Os	Оsmium	Re	Рений	W	Вольфрам	Y	Яттрий	Yb	Иттербий	Lu	Лютесий	At	Астатий	Ts	Технеций	Bi	Бисмут	Pb	Свинец	Sn	Станнум	Sb	Стибий	Br	Бром	Ge	Германий	As	Мышьяк	Se	Селен	Te	Теллур	Pt	Платина	Os	Оsmium	Ir	Иридий	Pd	Палладий	Ru	Рутений	Tc	Технеций	Mo	Молибден	W	Вольфрам	Re	Рений	N	Нитратий	Y	Яттрий	Bh	Бониум	Hs	Хассий	Mt	Мейтнерий	Ds	Дармштадтий	Rg	Рентгений	Cn	Копериций	Pt	Платина	Au	Золото	Ir	Иридий	Os	Оsmium	Re	Рений	W	Вольфрам	Y	Яттрий	Yb	Иттербий	Lu	Лютесий	At	Астатий	Ts	Технеций	Bi	Бисмут	Pb	Свинец	Sn	Станнум	Sb	Стибий	Br	Бром	Ge	Германий	As	Мышьяк	Se	Селен	Te	Теллур	Pt	Платина	Os	Оsmium	Ir	Иридий	Pd	Палладий	Ru	Рутений	Tc	Технеций	Mo	Молибден	W	Вольфрам	Re	Рений	N	Нитратий	Y	Яттрий	Bh	Бониум	Hs	Хассий	Mt	Мейтнерий	Ds	Дармштадтий	Rg	Рентгений	Cn	Копериций	Pt	Платина	Au	Золото	Ir	Иридий	Os	Оsmium	Re	Рений	W	Вольфрам	Y	Яттрий	Yb	Иттербий	Lu	Лютесий	At	Астатий	Ts	Технеций	Bi	Бисмут	Pb	Свинец	Sn	Станнум	Sb	Стибий	Br	Бром	Ge	Германий	As	Мышьяк	Se	Селен	Te	Теллур	Pt	Платина	Os	Оsmium	Ir	Иридий	Pd	Палладий	Ru	Рутений	Tc	Технеций	Mo	Молибден	W	Вольфрам	Re	Рений	N	Нитратий	Y	Яттрий	Bh	Бониум	Hs	Хассий	Mt	Мейтнерий	Ds	Дармштадтий	Rg	Рентгений	Cn	Копериций	Pt	Платина	Au	Золото	Ir	Иридий	Os	Оsmium	Re	Рений	W	Вольфрам	Y	Яттрий	Yb	Иттербий	Lu	Лютесий	At	Астатий	Ts	Технеций	Bi	Бисмут	Pb	Свинец	Sn	Станнум	Sb	Стибий	Br	Бром	Ge	Германий	As	Мышьяк	Se	Селен	Te	Теллур	Pt	Платина	Os	Оsmium	Ir	Иридий	Pd	Палладий	Ru	Рутений	Tc	Технеций	Mo	Молибден	W	Вольфрам	Re	Рений	N	Нитратий	Y	Яттрий	Bh	Бониум	Hs	Хассий	Mt	Мейтнерий	Ds	Дармштадтий	Rg	Рентгений	Cn	Копериций	Pt	Платина	Au	Золото	Ir	Иридий	Os	Оsmium	Re	Рений	W	Вольфрам	Y	Яттрий	Yb	Иттербий	Lu	Лютесий	At	Астатий	Ts	Технеций	Bi	Бисмут	Pb	Свинец	Sn	Станнум	Sb	Стибий	Br	Бром	Ge	Германий	As	Мышьяк	Se	Селен	Te	Теллур	Pt	Платина	Os	Оsmium	Ir	Иридий	Pd	Палладий	Ru	Рутений	Tc	Технеций	Mo	Молибден	W	Вольфрам	Re	Рений	N	Нитратий	Y	Яттрий	Bh	Бониум	Hs	Хассий	Mt	Мейтнерий	Ds	Дармштадтий	Rg	Рентгений	Cn	Копериций	Pt	Платина	Au	Золото	Ir	Иридий	Os	Оsmium	Re	Рений	W	Вольфрам	Y	Яттрий	Yb	Иттербий	Lu	Лютесий	At	Астатий	Ts	Технеций	Bi	Бисмут	Pb	Свинец	Sn	Станнум	Sb	Стибий	Br	Бром	Ge	Германий	As	Мышьяк	Se	Селен	Te	Теллур	Pt	Платина	Os	Оsmium	Ir	Иридий	Pd	Палладий	Ru	Рутений	Tc	Технеций	Mo	Молибден	W	Вольфрам	Re	Рений	N	Нитратий	Y	Яттрий	Bh	Бониум	Hs	Хассий	Mt	Мейтнерий	Ds	Дармштадтий	Rg	Рентгений	Cn	Копериций	Pt	Платина	Au	Золото	Ir	Иридий	Os	Оsmium	Re	Рений	W	Вольфрам	Y	Яттрий	Yb	Иттербий	Lu	Лютесий	At	Астатий	Ts	Технеций	Bi	Бисмут	Pb	Свинец	Sn	Станнум	Sb	Стибий	Br	Бром	Ge	Германий	As	Мышьяк	Se	Селен	Te	Теллур	Pt	Платина	Os	Оsmium	Ir	Иридий	Pd	Палладий	Ru	Рутений	Tc	Технеций	Mo	Молибден	W	Вольфрам	Re	Рений	N	Нитратий	Y	Яттрий	Bh	Бониум	Hs	Хассий	Mt	Мейтнерий	Ds	Дармштадтий	Rg	Рентгений	Cn	Копериций	Pt	Платина	Au	Золото	Ir	Иридий	Os	Оsmium	Re	Рений	W	Вольфрам	Y	Яттрий	Yb	Иттербий	Lu	Лютесий	At	Астатий	Ts	Технеций	Bi	Бисмут	Pb	Свинец	Sn	Станнум	Sb	Стибий	Br	Бром	Ge	Германий	As	Мышьяк	Se	Селен	Te	Теллур	Pt	Платина	Os	Оsmium	Ir	Иридий	Pd	Палладий	Ru	Рутений	Tc	Технеций	Mo	Молибден	W	Вольфрам	Re	Рений	N	Нитратий	Y	Яттрий	Bh	Бониум	Hs	Хассий	Mt	Мейтнерий	Ds	Дармштадтий	Rg	Рентгений	Cn	Копериций	Pt	Платина	Au	Золото	Ir	Иридий	Os	Оsmium	Re	Рений	W	Вольфрам</

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
16-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-16**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-16**

ТОШКЕНТ-2023



“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 49-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 19 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

1. Babayev Axror Uraqovich O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	7
2. Dauletmuratova Klara Kurbanbayevna KASB HUNAR TA'LIMIDA METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISH FANINING AHAMIYATI	9
3. Xolmatova Feruza Farxodovna KOMPYUTER VIRUSLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	11
4. D.B. Bobojonova, R.P. Babaxodjayev AXOLINI ISSIQLIK BILAN TAMINLASH JARAYONINI HISOB KITOB VA TAHLIL QILISH.....	13
5. Салимова Ирода Назарбаевна, Даникулов Бунёджон Наби ўгли ҚАДИМДА ҚУРИЛИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛANIШI	16



ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Babayev Axror Uraqovich

Samarqand viloyati Paxtachi tumani
13-som mактабнинг Texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga qo'yiladigan talablar, bu jarayondagi mavjud muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etish yo'llari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar. Talab, texnologiya, kasb tanlash, ta'lim, hamkorlik, pedagogika.

Har bir inson kasbni to'g'ri tanlash asosida o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini yaxshiroq ro'yobga chiqarishlari hamda jamiyatga ko'proq naf keltirishlari mumkin. Yosh avlodni kasbga yo'naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustuvor masalalardan sanalib kelingan. Bunda esa umumiyo'rta ta'lim tizimi yetakchi rol hisoblanadi. Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lган yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy jamiyat yetuk bilimdon mutaxasis kadrlarga muxtoj bo'lib boraveradi. O'quvchilarning o'qishga bo'lган chanqoqligini qondiruvchi birinchi ziyo – chashma bu maktabdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda kasblar tiplarini mustaqil holda biliш, tanlayotgan kasbning talablarini o'z shaxsiy sifatlari bilan qiyoslay olish, o'z moyilligi, qobiliyati, salomatligi tanlanayotgan kasbga muvofiqligini to'g'ri baholash ko'nikmalari shakllanishi lozim.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lган davrni o'z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'liq emas, u ma'lum yoshga kelib o'z o'zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarni kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Shuning uchun xam o'quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo'llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta'minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini olgan holda o'quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniga ega bo'lamiz.

O'quvchilarni kasb tanlashda yo'llash, kasb-xunarga yo'naltirish ishlarining asosiy ijrochisi maktablarda texnologiya fani o'qituvchisi zimmasiga tushadi. Shuning uchun kasb tanlashga yo'llash va texnologiya fanidan dars beradigan o'qituvchilar yuqori natijalarga, dars samaradorligiga erishishi uchun albatta quyidagilarga alohida e'tiborni qaratishlari zarur:

- zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning va ma'naviy-moddiy qadriyatlari mohiyatini chuqur tushuna biliш;
- pedagogik va innovatsion texnologiyalarning asl mohiyati va uslublarini tushinib, qo'llay biliш;
- o'quvchilarni mustaqil kasb-hunar o'rganishga, erkin kasb tanlashga sharoit yaratishi;
- pedagogik texnologiyalardan foydalanar ekan, o'zi ham yangi yaratuvchi yangi xilma-xil uslublarni o'ylab topishi, amalda qo'llashi;
- an'anaviy darslar orqali o'qituvchilarning yakka tartibda (individual) ishlashga erishishi;
- test topshiriqlarni o'quvchi faoliyati darajalariga mos holda tuzish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.



Umumta’lim maktablarida kasb-hunarga yo’naltirish ishlarini boshlang’ich sinflardan boshlab quyidagi talablar qo’yilishi o’rinlidir:

- milliy g’urur – bu o’z yurtining tarixini bilish;
- ularni erkin fikrlashga tayyorlash, o’z-o’zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish;
- umuminsoniy fazilatlarga ega bo’lish; o’z millati va vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlarni hurmat qilish;
- milliy istiqlol g’oyasi va mafkura asoslariga amal qilish;
- mustaqil va ijodiy fikrlash;
- ma’naviy-ahloqiy madaniyatga ega bo’lish;
- kasbiy-mehnat faoliyatida ekologik mas’uliyatni his qilish;
- kompyuter va boshqa telekommunikatsiya vositalaridan foydalana olish;
- maqsadni o’z oldiga to’g’ri qo’ya bilish;
- maqsadga erishish uchun bilim, ko’nikma va malakaga ehtiyoj sezish;
- bilim va qobiliyatni namoyon qilishga ehtiyojni kuchaytirish;
- o’ziga nisbatan talabchanlik, hulqi, xatti-harakatlaridagi kamchiliklarga tanqidiy manosabatda bo’lish;
- ta’lim muassasasi faoliyati jarayonida faol ishtirok etish.

Texnologiya fani o’qituvchisi texnologik ta’lim jarayonida kasb va mehnat turlari haqidagi ma’lumotlarni muayyan mavzularga bog’lagan holda o’quvchilarga yetkazishi lozim. O’quvchilarning qiziqishlariga asoslangan holda o’tkaziladigan mashg’ulotlar orasida muayyan kasblarga oid to‘garaklar alohida o’rin egallaydi. O’qituvchilar o’quvchilarni kasbga yo’llashga oid faoliyatini sinf rahbarlari, boshqa fan o’qituvchilari, mакtab rahbariyati va psixologi, ota-onalar, mahalla faollari, hududdagi kasb-hunar mакtablari ma’muriyati faoliyati bilan mujassamlashtirgan holda amalga oshirishi kerak. O’quvchilarni kasb-hunarga to’g’ri yo’llashda mehnat xonasи, laboratoriya va ustaxonalar ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu fanlar o’qituvchilari ularni zamonaviy talablar assosida jihozlashga alohida e’tibor qaratishi lozim, chunki o’quvchilarda muayyan mehnat va kasb turi haqidagi bilim, tushuncha va tasavvurlar ularning jamiyat hayotida tutgan o’rni haqidagi ma’lumotlar dastlab shu yerda hosil bo’ladi.

Ma’lumki, mehnat va kasb-hunarga bo’lgan muhabbat, e’tiqod, barcha o’quv fanlari tarkibida shakllantiriladi. Shuning uchun ham darslarda fanlararo aloqadorlikka alohida e’tibor qaratish talab etiladi. O’qituvchining o’quvchilarni kasb-hunarga yo’llash orqali ijtimoiylashtirishga oid faoliyatini turli o’quv fanlari o’qituvchilari va sinf rahbarlarining bu sohadagi ishlari bilan uyg’unlashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davlatov K. Mehnat va kasb ta’limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi.
– T.: «O’qituvchi», 1992
2. SH.S.Sharipov, K.Davlatov, G.S.Nasriddinova.Kasbga yo’naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. O’quv qo’llanma. –Toshkent, 2007.



KASB HUNAR TA'LIMIDA METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISH FANINING AHAMIYATI

Dauletmuratova Klara Kurbanbayevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumani
1-son kasb-hunar maktabi, maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb hunar ta'lifi muassasalarida biror sohaning mutaxassisini bo'lib chiqishi uchun metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fanining ahamiyati, uning tushunchasi va qonuniyatlarini bilishi lozimligi takidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: metrologiya, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, kasb, hunar, hujjat, etalon, o'lhash, kattalik, talab, me'yor, texnika, sifat.

Ma'lumki, biror kasb yoki hunarni o'rganishimiz uchun avvalo mavjud bilimlarni yaxshilab egallashimiz zarur. Ishlab chiqarish korxonalarida, qo'yingki, xalq xo'jaligining barcha sohalarida mehnat qilayotganlarga bir qarashda oddiy ko'rigan o'lchov birliklarini, o'lchov asbobi yoki vositasi o'rtasidagi farqni, o'lchov asboblaridan foydalanishni, standart (taqqoslash uchun obyekt, hujjat, material va h.k.), sertifikat (hujjat, shahodatnoma, pasport, sifat belgisi va h.k.) kabi tushunchalarni qo'llash vaqtida ikkilanib qolishga to'g'ri keladi. Bunda bizga metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fani yordamga keladi.

Metrologiya fan sifatida o'lhashlar, ularga bog'liq va tegishli bo'lgan qator masalalarni o'z doirasiga oladi. Metrologiya aslida yunonchadan olingen bo'lib, o'lhash, o'lcham, nutq, mantiq, ilm yoki fan ma'nolarini bildiradi. Umumiy tushunchasini oladigan bo'lsak, metrologiya - o'lhashlar haqidagi fan.

Inson aql-idroki, zakovati bilan o'rganayotgan, shakllantirayotgan hamda rivojlantirgan qaysi fanni, uning yo'nalishini olmaylik, albatta o'lhashlarga, ularning turli usullariga, o'zarobog'lanishlariga duch kelamiz. Bu o'lhash usullari va vositalari yordamida ularning birligini, yagona o'lhashni talab etilgan aniqlikda ta'minlash metrologiya fani orqaligina amalga oshiriladi. Shu sababdan hozirdagi qaysi bir fan, ilmiy yo'nalish, u hoh tabiiy, hoh ijtimoiy bo'lmash, albatta u yoki bu darajada metrologiya bilan bog'liq.

Inson qo'li yetgan, faoliyati doirasiga kirgan, ammo o'lhashlar va ularning vositalari yordamisiz o'rganilgan, izlangan hamda ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin bo'lgan birorta yo'nalish yo'q. Shuning uchun ham metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish asoslarini bilish, uni o'z mutaxassisligi doirasida tushunish va amaliy qo'llash muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

“Metrologiya va standartlashtirish” fanini o'rganishdan maqsad: talabalarda xalq xo'jaligining barcha sohalaridagi ishlab-chiqarish, savdo, nazorat va iste'mol bilan bog'liq bo'lgan turli metrologik, sifat boshqaruvi va sertifikatlashtirish bo'yicha masalalar bilan shug'ullanish, hamda meyoriy hujjatlar va standartlar bilan ishlash borasida yetarli bilim va malakalarni hosil qilishdan iborat. Asosiy vazifalar esa uzluksiz ta'lim tizimida talabalarni fan sohasi bo'yicha yetuk mutaxassis qilib tayyorlashdan iborat.

Metrologiya fani asosan quyidagi masalalar bilan shug'ullanadi:

- o'lhashlarning umumiy nazariyasi;
- kattaliklarning birliklari va ularning tizimlari;
- o'lhash usullari va vositalari;
- o'lhashlarning aniqligini topish usullari;
- o'lhashlar birligi va o'lhash vositalarining bir xillilagini ta'minlash asoslari;
- etalonlar va namunaviy o'lhash vositalari;
- etalon yoki namunaviy o'lhash vositalaridan ishchi vositalarga birliklarning o'lchamlarini uzatish usullari.

O'lhashlar uzluksiz, takroriy yoki davriy ravishda, ba'zan bilgan xolda, ba'zan esa bilmagan xolda sodir bo'lib turadi. Ona tabiat insonga shunday bir ajoyib, faqat o'zigagina xos bo'lgan xususiyatni, ya'ni xissiyotni berganki, bu nafaqat insonlar uchun, balki barcha tirik mavjudot uchun xam xos bo'lgan bebaxo in'omdir. Hissiyotni o'ta murakkab bir o'lhash asbobi sifatida tushunishimiz mumkin. Ammo shuni ta'kidlash joizki, atrofimizdag'i muhitni, borliqni faqat hissiyot vositasidagina bilish bugungi kunga kelib, yetarli bo'lmay qoldi. Faraz qilaylik, elektr



tarmog’idagi kuchlanishning qiymatini bilmoqchisiz. Tabiiyki, faqatgina his etish organlari orqali buni amalga oshirib bo’lmaydi. Buning uchun bizga “voltmter” kerak bo’ladi. Bundan tashqari, ushbu o’lhash asbobidan foydalanish uchun mavjud tartib-qoidalarni ham bilish lozim bo’ladi.

Mahsulot sifati, kishilar hayotining ravnaqi, uning sifati (yashash darajasi) oldindan yaratilgan sifat fundamenti (poydevori) ga bog’liqdir. Sifatning yuqori darajasi bu yurtimizning ilmiy, texnikaviy yuksalishi bilan chambarchas bog’liqdir.

Ilmiy texnikaviy yuksalish esa sifatning asosiy uch belgisi bo’lgan – standartlashtirish, metrologiya va setifikatlashtirish rivojini ta’minlab beradi.

Sifatning uch asosiy belgisiga dunyoda mavjud bo’lgan va faoliyat ko’rsatayotgan standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar: Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO-International Organization for Standardization), Metrologiya sohasida qonunlashtiruvchi xalqaro tashkilot (MOZM- Международная организация законодательной метрологии), Xalqaro savdo tashkiloti (**WTO- World Trade Organization**) o’zining ijobiliy ta’sirini o’tkazadi va o’tkazib kelmoqda.

Shuning uchun ham ushbu fanni uch qismda (metrologiya, standartlashtirish sertifikatlashtirish) o‘rganish natijasida talabalar metrologiya bo‘yicha asosiy qoidalarni, talablar va meyorlarni, standartlashtirish va sifatni boshqarishdagi davlat bayonnomalari va meyoriy hujjatlar bilan ishslashni bilishi va mavjud bilimlarini, tajribalarini amaliy faoliyatda qo’llay bilishi lozim hisoblanadi. Bu hozirgi kunda, ayniqsa, jahon andozalariga mos keluvchi mahsulotlarni ishlab chiqish va uning raqobatbardoshligini ta’minalashda o’ta muhim masalalardan biri sanaladi.

Foydalaniqan adabiyotlar

1. A.A.Qurbanov. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. T.,2007.
2. B.E.Muxamedov. Metrologiya, texnologik parametrlarni o’lhash usullari va asboblari. T.,1991
3. P.Ismatillayev va boshqalar. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. T. 2001
4. Крылова А. Н. Основы метрологии, стандартизации и сертификации. М.; Аудит, 1998 г.



KOMPYUTER VIRUSLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Xolmatova Feruza Farxodovna

Jizzax viloyati Jizzax shahar
6-son umumta'lim mактабнинг
Informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompyuter viruslarining turlari, ularning tarqalishi, zararli va zararsiz viruslar va ularning xususiyatlari haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: virus, xavf, tizim, dastur, xususiyat, zarar, fayl, axborot, ta'sir.

Zararkunanda dasturlar va avvalo, viruslar kompyuter tizimi uchun jiddiy xavf hisoblanadi. Bu xavfni nazar pisand qilmaslik foydalanuvchilar axboroti uchun jiddiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin. Viruslarning xavfini xaddan tashqari oshirib yuborish ham kompyuter tizimlarining barcha imkoniyatlaridan foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Viruslar ta'siri mexanizmini, ular bilan kurashish metodlarini bilish viruslarga qarshi samarali kurashishni tashkil etishga, ular ta'siri natijasida zararlanish ehtimolini va yo'qotishlarni minimumga keltirishga imkon beradi.

«Kompyuter viruslari» - kompyuter tizimlarida tarqalish va o'z-o'zidan qaytadan tiklanish xususiyatlariga ega bo'lgan bajariluvchi yoki sharxlanuvchi kichik dasturlardir. Viruslar kompyuter tizimlarida saqlanuvchi dastur taminotini o'zgartirishi yoki yo'qotishi mumkin.

Hozirda dunyoda faqat ro'yxatga olingan 65 mingdan ortiq kompyuter viruslari mavjud. Zamonaviy zararkunanda dasturlarining aksariyati o'z-o'zidan ko'payish qobiliyatiga ega bo'lganliklari sababli ularni ham kompyuter viruslariga taalluqli deb hisoblaydilar. Barcha kompyuter viruslari quyidagi alomatlari buyicha klassifikasiyalanishi mumkin:

1. yashash muhiti bo'yicha;
2. yashash muhitining zaxarlanishi bo'yicha;
3. zararkunandalik ta'sirning xavfi darajasi bo'yicha;
4. ishslash algoritmi bo'yicha.

Yashash muhiti bo'yicha kompyuter viruslari quyidagilarga bo'linadi: tarmoq viruslari; fayl viruslari; yuklama viruslar; kombinatsiyalangan viruslar.

Tarmoq viruslarining yashash muhiti kompyuter tarmoqlarining elementlaridir. Fayl viruslar bajariluvchi fayllarda joylashadi. Fayl viruslar ichida makroviruslar aloxida o'r'in tutadi. Makroviruslar-makrotillarda yozilgan zararkunanda dasturlar, elektron jadvallar va h.k. Yuklama viruslar tashqi xotira qurilmalarining yuklama sektorlarida (boot-sektorlarda) bo'ladi. Kombinatsiyalangan viruslar bir necha yashash muhitida joylashgan bo'ladi. Misol tariqasida yuklama fayl viruslarni ko'rsatish mumkin.

Yashash muhitining zaxarlanishi usuli bo'yicha kompyuter viruslari quyidagilarga bo'linadi:

5. rezident;
6. rezident bo'limgan;

Rezident viruslar faollashganlaridan so'ng to'laligicha yoki qisman yashash muhitidan (tarmoq, yuklama sektori, fayl) hisoblash mashinasining asosiy xotirasiga ko'chadi. Bu viruslar, odatda, faqat operatsion tizimga ruxsat etilgan imtiyozli rejimlardan foydalanib yashash muhitini zaxarlaydi va malum sharoitlarda zararkunandalik vazifasini bajaradi.

Rezident bo'limgan viruslar faqat faollashgan vaqtlarida hisoblash mashinasining asosiy xotirasiga tushib, zaxarlash va zararkunandalik vazifalarini bajaradi. Keyin bu viruslar asosiy xotirani butunlay tark etib yashash muhitida qoladi. Agar virus yashash muhitini zaxarlamaydigan dasturni asosiy xotiraga joylashtirsa bunday virus rezident bo'limgan virus deb hisoblanadi.

Virusning zararkunandalik imkoniyatlari ularni yaratuvchisining maqsadi va malakasiga hamda kompyuter tizimlarining xususiyatlariga bog'liq.

Foydalanuvchining informatsion resurslari uchun xavf darajasi bo'yicha kompyuter viruslarini quyidagilarga ajratish mumkin: beziyon viruslar; xavfli viruslar; juda xavfli viruslar.

Beziyon kompyuter viruslari kompyuter tizimi resurslariga qandaydir shikast yetkazishni o'ziga maqsad qilmagan mualliflar tomonidan yaratiladi. Ularning maqsadi, odatda, o'zlarini programmist imkoniyatlarini ko'z-ko'z qilishdir. Bunday viruslarning zararkunandaligi monitorda matnlar va rasmlarning chiqishi, musiqiy parchalarning ijro etilishiga olib keladi va h.k. Ammo bezarar bo'lib ko'ringan bunday viruslar kompyuter tizimlariga malum shikast yetkazadi.



Birinchidan bunday viruslar kompyuter tizimlarining resurslarini sarflaydi, natijada uning ishlash samaradorligi pasayadi. Ikkinchidan, kompyuter viruslarida kompyuter tizimlarining informastion resurslariga shikast keltiruvchi xatoliklar bo'lishi mumkin.

Xavfli viruslarga kompyuter tizimlarining samaradorligini jiddiy pasayishiga olib keluvchi, ammo xotirlovchi qurilmalarda saqlanuvchi axborotning yaxlitligini va maxfiyligini buzmaydigan viruslar kiradi. Bunday viruslar ta'siri oqibatlarini unchalik katta bo'limgan moddiy va vaqtiy resurslar sarfi evaziga yo'qotish mumkin. Bunday viruslarga misol tariqasida hisoblash mashinasi xotirasini egallovchi, ammo tarmoq ishiga ta'sir qilmaydigan viruslarni, dasturning qaytadan ishlanishi, operatsion tizimining qaytadan yuklanish yoki malumotlarni aloqa kanallari orqali qaytadan uzatilish va h.k. zaruriyatini tug'diruvchi viruslarni ko'rsatish mumkin.

Juda xavfli viruslarga axborotning maxfiyligi buzilishiga, yo'q qilinishiga, qaytarilmaydigan turlanishga (shifrlash ham shu qatorda) hamda axborotdan foydalanishga to'sqinlik qiluvchi va natijada apparat vositalarining ishdan chiqishiga va foydalanuvchilar sog'ligiga shikast yetishiga sabab bo'lувчи viruslar kiradi.

Ishlash algoritmining xususiyatlari bo'yicha viruslarni ikkita sinfga ajratish mumkin: tarqalishida yashash makonini o'zgartirmaydigan; tarqalishida yashash makonini o'zgartiradigan.

Yashash makonini o'zgartirmaydigan viruslar o'z navbatida ikkita guruhga ajratilishi mumkin: viruslar-«yo'ldoshlar» (companion), viruslar-«qurtlar» (worm).

Viruslar-«yo'ldoshlar» fayllarni o'zgartirmaydi. Uning ta'sir mexanizmi bajariluvchi fayllarning nuxxalarini yaratishdan iboratdir. Viruslar-«qurtlar» tarmoq orqali ishchi stansiyaga tushadi, tarmoqning boshqa abonentlari bo'yicha virusni jo'natish adreslarini hisoblaydi va virusni uzatishni bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.S.G'ulomov va boshqalar. «Axborot tizimlari va texnologiyalari» T. –«Sharq» - 2000 yil.
2. S.P.Allayorov va boshqalar. «Kompyuter ta'limi asoslari», Guliston, 2004 y



AXOLINI ISSIQLIK BILAN TAMINLASH JARAYONINI HISOB KITOB VA TAHLIL QILISH.

¹, D.B. Bobojonova ¹, R.P. Babaxodjayev

¹ Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti. O'zbekiston, 100095,

Annotatsiya: Maqlada issiqlik taminoti turlari issiqlik istemol qilish rejimi, issiqlik taminoti tizimining guruhanishi va Xorazm viloyati Urganch shaxri aholisiniissiqlik bilan taminlash hisobi, turar joy binolarini haroratini 1 °C ga qizdirish uchun sarflangan issiqlik miqdori keltirilgan.

Kalit so'zlar: issiqlik taminoti, tashqi hajim, yashovchilar soni, turar joy binolari, issiqlik miqdori.

Kirish. Respublikamizning yoqilg'i energetika zaxira resurslarining deyarli 40% ga yaqini yashash, jamoat va sanoat binolarini isitish, ventilyatsiya va issiq suv hamda korxonalarini bug' bilan ta'minlashga sarf bo'ladi. Yashash binolari va barcha jamoat binolari markazlashgan tizim yordamida issiq suv hamda issiqlik bilan ta'minlanadi. Issiqlik ta'minoti ikki xil usulda amalga oshiriladi: markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan. Markazlashtirilmagan turdag'i issiqlik ta'minotida issiqlik manbai va iste'molchisi bir-biriga yaqin joylashadi. Issiqlik tarmog'i bo'lmaydi. Markazlashtirilmagan issiqlik ta'minoti mahalliy (issiqlik ta'minoti mahalliy qozonxonadan) va yakka ta'minot (xonodonni isitish issiqlik qozonlari orqali) ta'minlashlarga bo'linadi [1].

Yil davomida issiqliknini iste'mol qilish rejimiga ko'ra yuqorida qayd etilgan iste'molchilar ikki turga bo'linadi:

- Mavsumiy iste'molchilar.
- Yil davomidagi iste'molchilar.

Har qanday issiqlik ta'minoti tizimining vazifasi iste'molchilarini kerakli miqdorda va talab qilingan parametrlri issiqlik bilan ta'minlashdan iborat. Issiqlik manbalarining iste'molchilarga nisbatan joylashishiga qarab issiqlik ta'minoti tizimlari markazlashtirilmagan va markazlashtirilgan turlarga bo'linadi. Markazlashtirilmagan tizimlarda issiqlik manbalari bilan iste'molchilarning issiqliknini qabul qiluvchi moslamalari yagona bir qurilmaga birlashtirilgan bo'ladi yoki ular shunchalik o'zaro yaqin joylashgan bo'ladi, issiqlikning manbadan iste'molchiga uzatilishi oraliq bo'g'insiz, ya'ni issiqlik tarmog'isiz amalga oshiriladi.

Markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti tizimlarida issiqlik manbai va iste'molchilarning issiqliknini qabul qiluvchi moslamalari bir-biriga nisbatan alohida, ko'pincha uzoq masofada joylashgan bo'ladi va manbadan issiqlikning iste'molchilarga uzatilishi issiqlik ta'minoti tizimlarini quyidagi guruxlarga bo'lish mumkin [2]:

- guruxli – binolar guruxining issiqlik ta'minoti;
- tuman (nohiya) – bir necha bino guruhining issiqlik ta'minoti;
- shahar – bir necha tuman (nohiya)ning issiqlik ta'minoti;
- shaharlарaro – bir necha shaharning issiqlik ta'minoti..

Masalaning qoyilishi. Xorazm viloyatini issiqlik bilan taminlash samaradorligini oshirish uchun issiqlik taminoti tizimini o'rganish.

"Xorazm issiqlik manbai" DUK markazlashtirilmagan issiqlik taminoti tizimiga ega bolib, aholini issiqlik bilan taminlashda 2 yolli yopiq usuldag'i suvli issiqlik berish tizimidan foydalaniladi. Qozonlarning nazariy quvvati 203,1 Gkal/soat bo'lib, amalda 85 Gkal/soat, ya'ni ishlab chiqarish quvvatidan 42% foydalanilmoqda. Shundan 15.5 Gkal/soat aholini issiqlik bilan taminlash uchun sarflanadi. Korxona viloyat bo'yicha 201 ta yuridik tashkilotlani issiqlik energiyasi va issiq suv bilan ta'minlaydi. Shundan, 33 tasi mакtabgacha ta'lrim muassasalari, 65 tasi mакtab va internatlar, 8 tasi litsey, 19 tasi kasb-hunat kollejlar, **3 tasi** oliy ta'lrim muassasalari, **32 tasi** sog'liqni saqlash muassasalari va 41 tasi boshqa tashkilotlardir. "Xorazm issiqlik manbai" DUK tasarruffidagi qozonxonalar 333 ta ko'p qavatlari turar joylarda yashaydigan 12 385 ta aholi xonodonlari va 208 ta tashkilotlarni issiqlik energiyasi va issiq suv bilan ta'minlaydi.

Yechish usullari. Yuqoridagi berilgan malumotlarga tayanib ko'riloymatning turarjoy binolarini issiqlik bilan taminlash hisobi amalga oshirildi.

Shaxarda yashovchilar soni 12385 ta kishi, isitish va isitish davrining davomiyligi uchun tashqi havo haroratini, tashqi havo haroratini shaxarning joylashgan joyiga qarab tanlaymiz.



Hamma binolarda havo haroratini xisoblashni soddalashtirish uchun, $t_x = 18^{\circ}\text{C}$, soviq suvning harorati qishda $t_{s,q} = 5^{\circ}\text{C}$ deb qabul qilandi [3].

Binoning har bir kishiga tog'ri keladigan tashqi hajmi:

$$V = n_{\text{kishi}} * \alpha = 9 * 6 = 54 \text{ m}^3/\text{kishi}$$

Binoning tashqi hajmi :

$$V_b = v_0 * N = 54 * 12385 = 668790 \text{ m}^3;$$

Binolarning tashqi hajmlari;

$$V_{\text{or}} = \frac{v_b}{n} = \frac{668790}{208} = 3215.33 \text{ m}^2;$$

Jamoat binolari tashqi hajmini xisoblassh natiyjalarini 1-jadvalga yig'amiz, unda ma'lumotlardan olingan vintelyatsion xarakteristikalarining qiymati X_b , hajim ko'rsatkichlari keltirilgan.

Binolar nomi	Hajmiy ko'rsatkichlar $\text{m}^3/1000 \text{ kishi}$	Tashqi hajm V_x, m^3	Binolar soni, n_1	Ventelyatsion xarakteristika $V_b, \text{Kkal/m}^3 * \text{soat} * \text{gr}$	$V_x * V_b$ kattaligi
Mamuriy binolar	1000	3215,33	45	0.18	682.02
Bolalar bog'chasi	2000	6430	33	0.11	833.58
Maktablar	3400	10932	61	0.07	901.78
Kasalxonalar	600	1929	32	0.27	613.818
Jami	7000	22507	171	-	3031.2

Jamoat binolarining o'rtacha tashqi hajmi quydagisi ifodadan aniqlanadi:

$$V_{\text{o'r.h}} = \frac{\sum V_x}{n_2} = \frac{22507}{171} = 131,6 \text{ m}^3;$$

Turar joy va jamoat binolarining isitish xarakteristikasini aniqlash uchun quyidagi ifoda qabul qilinadi.

Unda

$$X_1 = \frac{2}{\sqrt[6]{V_{b,\text{o'r}}}} = \frac{2}{\sqrt[6]{3215,33}} = 0.52$$


$$X_{i,ya} = \frac{2}{\sqrt[6]{V_{o',r,y}}} = \frac{2}{\sqrt[6]{131,6}} = 0.88;$$

Turar joy va jamoat binolarini isitish uchun sarflanadigan issiqlik quyidagicha aniqlanadi. Qishgi mavsumda eng sovuq haroratni hisobga olgan holda $t'_1 = -25^{\circ}\text{C}$ dep qabul qilamiz [4-5].

$$\begin{aligned} Q'_B &= X_{i,ya} * V_{ya}(t_h - t'_1) + X_{i,j} * \sum V_j(t_h - t'_1) \\ &= 0.52 * 668790 * (18 + 25) + 22507 * 0.52 * (18 + 25) = 15,45 * 10^6 \text{ kkal}; \end{aligned}$$

Natiyjalar tahlili.

Yuqorida hisob kitoblarni exsec dasturida haroratlarini o'zgartirib bir necha qiymatda aniqlandi va natiyjasi grafik ko'rinishiga keltirildi. Hisob kitoblarda binoning ichi harorati 18°C deb qabul qilingan bolsa, exsel dasturida 18°C dan 24°C gacha qiymat olingan va shu qiymat boyicha turar joy binolarini isitish uchun ketgan issiqlik miqdori aniqlandi



Xulosa. Yuqoridagi grafikdan ko'rindaniki, aholi binolarini haroratini orttirish uchun unga qoshimcha energiya berish kerak va yana qoshimcha yoqilg'I yoqish zarur. Hisob kitobda binoning ichki harorati ortacha $24\ ^{\circ}\text{C}$ gacha qizdirilishi maqsadga muvofiqdir. Bundan kelib chiqab, binoni haroratini $24\ ^{\circ}\text{C}$ ga qizdirish uchun 17614248 kkal energiya sarflanishi va binoni ichki haroratini $1\ ^{\circ}\text{C}$ ga qizdirish uchun esa **359474,4** kkal issiqlik energiyasi sarf bolishi aniqlandi.

Turar joy binolarini isitish uchun sarflangan issiqlik miqdorini kamaytirish usullaridan biri bu turar joy binolarining tashqi hajminini **v_b** kamaytirib binolar sonini **n** orttirish zarur, yaniy aholi turar joy binolari qancha tig'iz joylashsa ularni issiqlik bilan taminlash samaralidir.

Foydalananligan adabiyotlar:

1. U.H.Tursunov,T.M.Mamajanov,“Issiqlik taminoti”Toshkent-Talqin-2004
2. A.U.Alimboev.“ISSIQLIK ta'minoti va ISSIQLIK tarmoqlari” oquv qollanma Toshkent-1997
3. Mingazov R.F, Azimova M.M.“ISSIQLIK ta'minoti va ISSIQLIK tarmoqlari” oquv qollanma Toshkent - 2011
4. Е.Я.Соколов Теплофикация и тепловые сети.-М., МЭИ, 2002 год.
5. Энергоиспользование в теплоэнергетике и теплотехнологиях. Сборник задач. Часть 1. Учебное пособие. Под ред.Павлова Ю.М. –М., МЭИ. 2005г.-52с



ҚАДИМДА ҚУРИЛИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

Салимова Ирода Назарбаевна

Тошкент архитектура қурилиш

университети доценти (PhD)

тел.: +998(90) 325-02-10

salimova11@mail.ru

Даникулов Бунёджон Наби ўғли

Тошкент архитектура қурилиш университети,

“Бино ва иншоотлар қурилиши” факультети

талабаси

Аннотация: Қурилиш технологияси мураккаб ишлаб чиқариш жараёни бўлиб, ундан ҳосил бўлган маҳсулот инсонларнинг жисмоний ва маънавий эҳтиёжларини амалга оширишга хизмат қиласди.

Калит сўзлар: архитектура, қурилиш, технология, иншоот, бунёдкорлик, жараён, касб, малака, тажриба, нуқсон, сифат, самарадорлик.

Инсон хавосиз, сувсиз ва овқатсиз яшай олмаганидек, унинг ҳаётини бошпанасиз хам тасаввур қилиб бўлмайди. Ибтидоий даврларда хам одамлар ўзларига бошпана қуришган.

Маълумки ҳар бир иншоот иккита талабга жавоб бериши, яъни инсоннинг жисмоний ва маънавий эҳтиёжларини қондириши керак. Демак, яаш учун мўлжалланган ҳар қандай уй аввало иссиқ, ёруғ, кенг, кулагай бўлиши ва айни вақтда чиройли бўлиб, кўзни қувонтириши лозим.

Ҳамма замонлардада яшаган барча ҳалқларнинг қурувчилари шунга интилиб келганлар. Шу сабабли инсоният ижодий бунёдкорлик соҳасида, турли материаллардан, хилма-хил шакл ва услубларда ҳар хил мақсадларга мўлжалланган бинолар қуриш соҳасида жуда бой тажриба ортирган.

Шуни ҳам айтиш керакки, у ёки бу бунёдкорлик материалининг ўзи бинонинг ички ва ташки қиёфасига катта таъсир кўрсатган.

Қурилишда ишлатилган энг қадими хом ашё оддий тош (ғишт) бўлган. Шу сабабли энг қадимги қурувчилик ихтисоси «ғишт терувчи» деб аталган. Тош узоқ даврга мўлжалланган бўлиб, унга ҳар қандай шакл бериш мумкин бўлган. Одамлар гранитдан иш қуроли ясад олиб, унинг ёрдамида ўша гранитга, оҳак-тош, мармар, туф, юмшоқ тошларга ишлов беришган.

Бундай қараганда, ғишт териши учун мураккаб ишга ўхшамайди. Уни бир-бирини устига қўйиб, қоришма билан мустахкамласа бўлди, яъни узоқ замонларда одамлар тошларни бир-бирига ёпиширадиган қоришмани ҳам ихтиро қилишган. Бунинг учун улар оҳак, гипс, тупроқдан, кейинчалик эса цементдан фойдаланишган.

Аслида ғишт терувчининг иши анча мураккаб. Айрим ғиштлардан бир қаватли уйни пухта қилиб қуриш учун ҳам кўп нарсаларни билиш керак. Кўз илғамайдиган хатолар ва тажрибасизликдан келиб чиқадиган нуқсонлар девор икки метрга етар-етмас қулашиб тушишига сабаб бўлади. Гап шундай экан, ғиштдан юз метр ва ундан баланд бинолар қурадиган ғишт терувчи нақадар малакали бўлиши кераклигини тасаввур қилиш қийин эмас.





Ўзбекистоннинг қадимда бунёд этилган тарихий обидаларига назар ташласак, аксариятини ғиштлардан мохирона қурилганига гувоҳ бўламиз. Бу ишларни бажариш учун ушбу касбнинг кўпгина нозик сирларини билиб олиш муҳим саналган.

Фишт терувчи ўзи ишлатадиган материалнинг хусусиятларини ҳам ҳисобга олиши зарур. Белгиланган лойиҳа бўйича девор қуриш маҳоратининг ўзи иншоотни муваффақиятли тутгаллаш учун кифоя қилмайди. Бунда гап материаллар қаршилигининг айрим назарий асосларини билиш ҳақида боради. Ҳар қандай фишт ёки тош муайян даражада қаттиқ бўлиб, нам ва иссиқлик ўтказиш, совуққа ва ўтга чидамлилик, овоз ўтказиш хусусиятлари жиҳатидан бир-биридан фарқ қиласди. Асрлага мўлжалланган муҳташам иншоот қураётганда бунёдкорлик материалларининг ана шу хусусиятларидан бирортасини эътибордан четда қолдириб бўлмайди.

Қурилишга бевосита алоқадор бўлмаган киши фишт терувчи фойдаланадиган материаллар тури нақадар кенг ва хилма-хил эканлигини билмайди, албатта. Табиий тошлардан ташқари, саноат иморат қуриш учун хилма-хил сунъий материаллар ишлаб чиқармоқда. Булар жумласига лойдан, силикатдан ясалган, енгил, ғовакли, кошинкорлик мақсадида ишлатиладиган ғиштлар, бетон, шлак-бетон, керамик бетон сингари тошлар киради.

Қоришималар ҳақида ҳам шуни айтиш керакки, қоришима ғиштларни бир-бирига ёпиширадиган муҳим материал бўлибгина қолмай, қурилишда ишлатиладиган тош ва ғиштларнинг навбатдаги қаторларидан тушадиган оғирликни бир текис тақсимлайдиган муҳим восита ҳамдир.

Қоришима тайёрлаш ҳам ўзига хос бутун бир фандир. Фишт терувчи бу фан сирларини мукаммал эгаллаб олиши керак. Бунда хатога йўл қўйиши мутлако мумкин эмас. Чунки бинонинг мустаҳкамлиги, унинг узоқ муддатга хизмат қилиши ва одамлар учун хавфсиз бўлиши кўп жиҳатдан қоришимага ҳам боғлиқ.

Фишт терувчи кундалик ишида қандай асбоблардан фойдаланади? Юзаки қараганда ёғоч дастали куракча (кельма)нинг ўзи кифоя қиладигандек ҳамда у билан қоришимани керакли жойга солиб, уни текислаш ва фишт қўйгандан кейин ситилиб чиқсан ортиқча қоришимани олиб, ғиштлар оралиқига қуийшнинг ўзи кифоядек туюлади. Аслида эса фишт терувчи жуда кўп асбоблардан фойдаланади ва улардан фойдаланиш йўлларини мукаммал эгаллаб олиши керак.

Илгарилари фишт ва қоришима юқори қаватларга пишанг ёрдамида кўтариб бериларди. Ҳозир эса қурувчилар ихтиёрида оғирюкларни кўтариб берадиган мураккаб механизмларнинг бутун бир системаси: чиғирлар, транспортёрлар, подъёмниклар (кўтаргичлар) ва турли кранлар мавжуд.

Тўрт юз дона фишт терилган махсус мослама осонлик билан тепага кўтарилади. Бир неча минутдан кейин фишт терувчи ишлаётган жойга салкам 1 m^3 қоришима солинган бункер етказиб берилади.

Ҳозир қурилишда оғир бетон плиталар иш ўрнига кран ёрдамида кўтариб берилади. Кран бу плиталарни олиб, бино конструкциясидаги мўлжалланган жойга олиб бориб қўяди. Мана энди биз бошқа бир қурилиш ихтисослиги яъни бетончи ҳақида сўз юритамиз.

Маълумки, бетон сўнгги йилларда жуда кенг тарқалди. Уни тайёрлаш сири бундан 100 йиллар илгари ҳам маълум бўлган. Ундан қадимий мисрликлар, греклар, карфагенлар, римликар фойдаланишган. Бетон XX асрдан бошлаб кенг кўламда ишлатила бошлаган. Бетон ҳақида жуда кўп китоблар ёзилди, шартли равищда «бетоншунослик» деб атаса бўладиган бутун бир фан вужудга келди. Бу ноёб боғловчи материал шаҳарларда оммавий қурилишни авж олдириш талабларига тўла жавоб беради. У қурилишларда меҳнат унумдорлигини кескин оширишга, ҳаражатларни камайтиришга, миллионлаб инсонларни қисқа вакт ичida уй-жойлар билан таъминлашга имкон берган. Ўша давларда бир йил ичida умумий сахни юз млн m^2 келадиган уйлар барпо этилган.

У ўтга ниҳоятда чидамли ҳисобланган. Бу жиҳатдан ёғоч ҳам, металл ҳам, пластмасса ҳам унга сира тенг келолмайди. Уни тайёрлаш қийин эмас ва унга ҳар қандай шаклни бериш мумкин. Бетонга металл арматура қўшилса, жуда катта оғирликларга бардош берадиган конструкция ҳосил бўлади.

Бетончи ихтисосининг моҳияти арматура билан бетонни қолипга жойлашдан иборат. Бетончилар бажарадиган асосий операциялардан бири бетоннинг ўзини, яъни боғловчи модда, тўлдиргичлар – кум, шағал, тош ва сувдан иборат аралашмани тайёрлашдир.



Иншоотларнининг қандай мақсадларга мўлжалланганига қараб бетоннинг турли навларидан, боғловчи модда ва тўлдиргичларнинг ҳар хил турларидан фойдаланилади.

Қурилишда бетончилар меҳнатини механизациялаштириш соҳасида жуда кўп ишлар қилинган.

Мамлакатимизда бетон ва темир-бетондан фойдаланиш йил сайн кенгайиб бормоқда. Бетончининг касби ҳакида жуда кўп гапларни айтиш мумкин, бу касб ҳақиқатан ҳам истиқболли касбdir.

Яна бир қурувчилик касби – том ёпувчиликдир. Том бўлмаса, бу уйни уй деб бўлмайди. Шу сабабли том ёпувчиларни ер юзидаги энг қадими касб эгаларидан бири деса бўлади.



Қадимда одамлар қаерда яшашларидан, қандай иқлим ва табиий шароитларда бўлишиларидан қатъий назар, улар «бошпана» учун ҳамиша қурилиш ашёларини топганлар. Авваллари бу мақсад учун турли ўсимликлардан: дараҳт пўстлоги, қамиш, похолдан фойдаланишган. Лекин бундай томлар узокка чидамас, сув ўтказиб юборар ва арзимаган баҳона билан ёниб кетарди. Ёнғин чиққанида у ҳамма уйларни қамраб оларди. Ёнғин кўпинча бутун-бутун кўчаларни, баъзан эса қишлоқларни кулга айлантиради.

Кейинчалик одамлар томни сопол тахтача (черепица)лар билан ёпишни ўрганиб олишди. Бундай томлар жазира мақсади ҳам бардош берар, сув ўтказмас ва бир неча ўн йилларга етар эди. Аммо черепицанинг бир муҳим камчилиги – мўртлиги эди.

Оммавий қурилиш учун илгариги материалларнинг ҳамма афзалликларига эга бўлган ва камчиликлардан ҳоли бўлган универсал материал топиш керак эди. У осон тайёрланиши, енгил, ўтга чидамли, нам ўтказмайдиган, узоққа чидайдиган ва мустаҳкам, фойдаланишда қулай бўлиши зарур эди. Олимлар ва қурувчилар ана шундай материалларни топишиди. Булар шифер, рубероид ва маҳсус тунукадир.

Архитекторлар ҳам, қурувчилар ҳам томга ёпиладиган материалнинг хоссаларини билиш билангина чекланмасликлари керак. Улар жойнинг об-ҳаво шароитини ҳам ҳисобга олишлари зарур.

Биз сиз билан серқуёш хур ўлкада яшаймиз. Офтоб эса кўпгина касб эгаларига, шу жумладан том ёпувчиларга ҳам катта ташвиш туғдиради. Ҳозир том остидаги ҳароратни пасайтиришнинг кўпгина усуслари ишлаб чиқилди ва амалда қўлланимокда. Том ёпувчининг меҳнати қадимдан қўлда бажарилиб келган ва уни механизациялаштиришнинг имконияти йўқдек туюларди. Қурилиш технологиясининг янгиликларидан бехабар кишигина шундай деб ўйлаши мумкин. Олимлар томнинг янги технологияларини ишлаб чиқдилар. Ўз афзалликлари билан шифер, тунука, рубероид сингари материаллардан томларни асосга ёпишириш жараёни ҳам механизациялаштирилди. Лекин бундан ҳозирги кунда том ёпувчининг иши машиналарни бошқаришдангина иборат бўлиб қолди, деган маъно келиб чиқмайди. Қадимий касб эгаларининг санъати бугунги кунда ҳам жуда қадрланади.

Ер юзида шундай касблар борки, замонлар ўтиши билан унинг моҳияти ўзгармай қолаверади. Бу моҳият – табиий истеъдод, катта малака ва қўл моҳирлигидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. К.Г.Немировский. Курувчилик – шарафли касб. Тошкент «Ўқитувчи» 2015й.
2. Н.Бозорбоев. Уй-жой қурувчилар учун 1001 маслаҳат. Тошкент «Мехнат» 1990.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 16-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзисев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000